O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

FAN-SPORTGA

ILMIY-NAZARIY JURNAL

2025/12



ISSN: 2181 7804


SABER
MILLIY OLIMPIYA QO'MITASI
SPORT VAZIRLIGI


FIE
FIE CERTIFICATE
FIE World Cup




UZBEKISTAN TAEKWONDO ASSOCIATION
DIPLOM


COACH
COACH
KPNP
WORLD TAEKWONDO


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI
PREZIDENT OLIMPIADASI

FAN Sportga

ilmiy-nazariy jurnali

2025/12

Bosh muharrir
Rashid MATKARIMOV

Bosh muharrir o‘rinbosari ilmiy maslahatchi:
SH.SH. GAZIYEV

Tahrir hay’ati tarkibi:

E.T. Raxmanov
SH.S. Mirzanov
M.X. Mirjamalov
M.O‘. Arziqulov
S.B. Repkin
Bek Mun Jong
I.P. Sivoxin
N.T. To‘xtaboyev
B.K. Erimbetov
I.B. Aliyev
L.P. Yugay
D.X. Umarov
A.K. Eshtayev
K.SH. Ziyadullayev
N.J. Isakulova
A.B. Jumaniyazov
M.M. Qirg‘izboyev

Tahrir hay’ati kotibi

SH.X. Toshturdiyev
B.A. Ishimov
R.I. Isroilov
A.U. Rashidov
O.Y. Mamishev
A.S. Gonashvili

Texnik tahririyat tarkibi:

N.N.G‘afforov
U.O. Azimova
SH.B. Aliyeva
M. Rahmonov

fan-sportga.uz

Jurnalning telegram kanali

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ

SPORT MASHG‘ULOTLARI: TEXNIKA, TAKTIKA, USULIYAT SPORTS TRAINING: TECHNIQUE, TACTICS, METHODOLOGY ТЕХНИКА, ТАКТИКА И МЕТОДИКА СПОРТИВНОЙ ТРЕНИРОВКИ

O.R.Igamberdiyev – Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida futbolchilarni tayyorlash mexanizmining ilmiy-nazariy asoslari. 3

S.R. Davletmuratov – Futbolchilarning texnik-taktik va harakat faoliyati dinamikasi. 5

Е.С. Люлина., Т. Шакиржанов – Методика повышения физической подготовленности дзюдоистов на основе высокоинтенсивного интервального тренинга (HIIT). 9

A.R. Xodjiyev – Yuqori malakali baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarning musobaqadagi shaxsiy model ko‘rsatkichlari tahlili. 11

I.Jo‘rayev – Tog‘ chang‘ichilarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyati. 16

А.А. Туньян – Повышение эффективности подготовки юных волейболистов посредством специальных физических упражнений. 19

Ф.А. Пулатов – Скорость и точность выбора партнера с выгодно занятой позицией у щита в баскетболе для передачи мяча как вариант организации результативной атаки. 22

Sh.T. Xakimov – Yosh belbog‘li kurashchilarni musobaqa ko‘rsatkichlari asosida texnik usullarni o‘rgatish vositalari va metodlari. 26

R.D. Alimboyeva – Gandbolchilarni chaqqonlik va tezkorlik sifatlarini rivojlantirishda maxsus mashqlarning ahamiyati. 29

M.K. Jumaniyazov – Regbichilarni tayyorlashda jamoaviy o‘yin ko‘nikmalarini shakllantirish. 31

J.Sh. Umirzoqov – Yuqori malakali voleybolchilarning musobaqaga tayyorgarlik davrida maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati. 34

D.A. Muxammadiyeva – Yuqori malakali sportchilar organizmda gidratatsiya muammosi va sport mashg‘ulotlari jarayonida suyuqlik harakati va degidratatsiya holatini tahlil qilish. 37

K.B. Muxammadiyev – Yuqori malakali kurashchilarning tezkor-kuch sifatini takomillashtirish uslubiyati. 41

J.A. Akramov – Gandbolchilarning jarima zarbasini berish texnikasi modeli. 45

A.M. Yusupov – O‘quv-yig‘in mashg‘ulotida kurashchilar uchun haftalik tezkor-kuch qobilyatini rivojlantirish. 49

Z.X. Yusupova – Disk uloqtiruvchi sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarlik tizimidagi mashg‘ulot jarayonlarini tashkil etish uchun uslubiy model samaradorligi. 51

FAN Sportga
ilmiy-nazariy jurnali

“FAN – SPORTGA”
ilmiy-nazariy jurnali

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti muassisligida chop etiladi

Tahririyat manzili:
111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi 19-uy. Format 60x84 1/16. 84 sahifa.
Bosishga ruxsat etildi: 20.12.2025

05.02.2018 yilda Toshkent shahrida ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ro‘yxatga olish raqami № 02-005 “FAN – SPORTGA” jurnali 2004 yildan nashr etiladi.

Suratlar muallifi:
Anvar Ilyasov
Abdullo Fayzullayev

2025/12

JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING TIBBIY-BIOLOGIK VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI
MEDICAL-BIOLOGICAL AND SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORT
МЕДИКО-БИОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

Y.Y. Aripov – Xorijiy va yurtimizdagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining jismoniy tarbiya fani bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarini qiyosiy tahlili. 55

O.O. Kasimov – O‘zbekiston sportchilarining xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta’minlashning huquqiy-axloqiy qoidalarini takomillashtirish. 59

Ш.С. Турдикулов – Характеристика и структура основных элементов системы подготовки юных фехтовальщиков. 61

Z.G. Gapparov., J.M. Ishtayev – Sportchilar psixologik profilini modellashtirish tizimi. 65

J.M. Yuldasheva – Maktab o‘quvchilarini darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida sport musobaqalariga tayyorlashning pedagogik tahlili. 69

В.В. Серебряков., М.С. Гулямова – Инструментальная оценка кортизолового ответа: использование субъективных показателей для непрямого мониторинга физиологического стресса у спортсменов. 72

G.I. Abdireimova – 11–12 yoshli suzuvchilarni uzoq masofalarga suzish tayyorgarligini takomillashtirish. 76

J.A. Akramov – Gandbolchi qizlarning tayanib yondan darvozaga to‘p otish texnikasi modeli. 78

Y.Y. Aripov – V-IX sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida tashkil etish samaradorligi. 83

Sh.M. Nurmatova – Smart ball texnologiyasining ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonida basketbolchilarning mashg‘ulot yuklamasini nazorat qilishdagi imkoniyatlari va texnik mahoratni baholash metodikasi. 87

Sh.Sh. Maxmudov – Yuqori malakali og‘ir atletikachilarning ko‘p yillik tayyorgarligida mashg‘ulot rejasini takomillashtirish va rejalashtirish. 91

ADAPTIV JISMONIY TARBIYA
ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION
АДАПТИВНАЯ ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА

Г.М. Зоитова – Моделирование годичного цикла подготовки пловцов-паралимпийцев с использованием современных педагогических технологий. 96

S.M. Umarov – Para-velosipedchilarning vestibulyar barqarorligini oshirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulot jarayoni uslubiyatini ilmiy asoslash va tajribaviy tekshirish. 99

PEDAGOGIK KADRLARNI TAYYORLASH
PREPARATION OF TEACHING STAFF
ПОДГОТОВКА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ

M.I. Idrisov – Turizm faoliyatini jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga integratsiyalashning talaba-sportchilarning tayyorgarlik darajasiga ta’siri. 102

Z.B. Xudaykulov – Talaba-yoshlarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha pedagogik tajriba tahlili. 105

B.X. G‘afurov - Gandbolda jarima to‘pini darvozaga otish aniqligi oshirishda qo‘llaniladigan uslublar. 108



Mustaqil izlanuvchi
O.O. KASIMOV[1]
[1]O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,
Chirchiq shahri, O‘zbekiston

10.65149/fansport.2025.v8i12.a018

O‘ZBEKISTON SPORTCHILARINING XALQARO MUSOBAQALARDA ISHTIROKINI TA’MINLASHNING HUQUQIY-AXLOQIY QOIDALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

В данной статье анализируются правовые и этические нормы, применяемые в процессе обеспечения участия спортсменов в международных соревнованиях. На основе нормативных документов международных спортивных организаций, антидопинговой политики и требований спортивной этики освещены существующие проблемы. Также в результате исследования разработаны предложения, направленные на усиление правовой защиты спортсменов, внедрение этических норм на институциональном уровне и обеспечение справедливого участия в международных соревнованиях.

Ключевые слова: *спортивное право, спортивная этика, международные соревнования, права спортсменов, fair play, антидопинг.*

Abstract

Mazkur maqolada sportchilarning xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta’minlash jarayonida amal qilinadigan huquqiy va axloqiy qoidalar tahlil qilingan. Xalqaro sport tashkilotlari me’yoriy hujjatlari, antidoping siyosati hamda sport etikasi talablari asosida mavjud muammolar yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijasida sportchilarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, axloqiy me’yorlarni institutsional darajada joriy etish va xalqaro musobaqalarda adolatli ishtirokni ta’minlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *sport huquqi, sport etikasi, xalqaro musobaqalar, sportchi huquqlari, fair play, antidoping.*

This article analyzes the legal and ethical norms applied in the process of ensuring athletes’ participation in international competitions. Existing problems are highlighted based on the regulatory documents of international sports organizations, anti-doping policy, and the requirements of sports ethics. Also, as a result of the research, proposals aimed at strengthening the legal protection of athletes, introducing ethical norms at the institutional level, and ensuring fair participation in international competitions have been developed.

Key words: *sports law, sports ethics, international competitions, athlete’s rights, fair play, anti-doping.*

Dolzarbligi. Globallashuv sharoitida sportchilarning xalqaro musobaqalarda ishtiroki davlatning sport siyosati, milliy imiji va sportchilarning kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, amaliyotda sportchilarning huquqiy himoyasi, axloqiy me’yorlarga rioya etilishi, antidoping talablari, diskriminatsiyadan himoyalanishi va shaffof tanlov mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi muammolari mavjud. Shu bois mazkur jarayonni tartibga soluvchi huquqiy-axloqiy qoidalarni takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda sport xalqaro miqyosda davlatlararo hamkorlik, raqobat va madaniy integratsiyaning muhim vositasiga aylangan [1]. Sportchilarning xalqaro musobaqalarda ishtiroki nafaqat sport natijalari, balki mamlakatning ijtimoiy-siyosiy nufuzi va sport siyosatini aks ettiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois mazkur jarayonni tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy qoidalar tizimi alohida ahamiyat kasb etadi [2].

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekiston sportchilarining xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta’minlashda huquqiy-axloqiy qoidalarni takomillashtirish yo‘nalishlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Sportchilarning xalqaro musobaqalarda ishtirokini tartibga solish masalalari Olimpiya Xartiyasi, Jahon Antidoping Kodeksi (WADA), Xalqaro sport federatsiyalari reglamentlarida keng yoritilgan. Ilmiy tadqiqotlarda sport huquqi sportchilar huquqlarini himoya qiluvchi mustaqil huquq sohasi sifatida talqin qilinadi [3]. Shuningdek, sport etikasi sport faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, fair play konsepsiyasi asosiy axloqiy mezon sifatida qaraladi. Biroq ilmiy manbalarda sportchilarning xalqaro musobaqalardagi ishtirokini huquqiy va axloqiy jihatdan birgalikda takomillashtirish masalalari yetarli darajada kompleks yoritilmagan. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, sportchilarning xalqaro musobaqalarda ishtiroki jarayonida huquqiy bo‘shliqlar, axloqiy me’yorlarning buzilishi, tanlov va saralash tizimlaridagi subyektivlik hamda antidoping talablariga rioya etmaslik holatlari uchramoqda. Bu esa sportchilarning huquqlarini cheklash, adolatli raqobatga putur yetkazish va sport tizimining xalqaro imijiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sportchilarning xalqaro musobaqalarda ishtirok etish qoidalari Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi Xartiyasi asosida shakllanib, sport faoliyatini tartibga soluvchi universal huquqiy va axloqiy me’yorlar tizimini ifodalaydi. Olimpiya Xartiyasi sportni inson qadr-qimmati, tenglik va adolat tamoyillariga asoslangan global ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi hamda sportchilarning musobaqalarda ishtirokini aniq belgilangan qoidalar asosida amalga oshirilishini talab etadi. Xartiyaga muvofiq, sportchilarning xalqaro musobaqalarda ishtiroki millati, irqi, jinsi, diniy e’tiqodi, siyosiy qarashlari yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, teng huquqlilik tamoyiliga asoslanadi [4].

Mamlakatimizda sportchilarning xalqaro musobaqalarda ishtiroki ularning tegishli milliy olimpiya qo‘mitasi va xalqaro sport federatsiyalari tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Sportchi faqat o‘zi a’zo bo‘lgan sport tashkiloti orqali xalqaro muso-

baqalarda qatnashish huquqiga ega bo‘lib, bu jarayon sport boshqaruvida tartib va tizimlilikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, sportchi o‘zining sport faoliyati davomida xalqaro federatsiyalar nizomlari va Olimpiya Xartiyasi talablariga qat’iy rioya etishi shart. Olimpiya Xartiyasida sportchilar uchun axloqiy mas’uliyat alohida o‘rin tutadi. Sportchi musobaqalarda halollik, adolat va raqibga hurmat tamoyillariga amal qilishi, fair play qoidalarini buzmasligi lozim. Doping, noqonuniy vositalardan foydalanish, musobaqa natijalariga ta’sir ko‘rsatishga urinish sportchining xalqaro musobaqalarda ishtirok etish huquqidan mahrum etilishiga olib keluvchi jiddiy huquqbuzarlik sifatida baholanadi. Shu jihatdan, antidoping talablari sportchilarning xalqaro musobaqalardagi ishtirokini tartibga soluvchi asosiy qoidalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Olimpiya Xartiyasi sportchilarning sog‘lig‘ini muhofaza qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Sportchi xalqaro musobaqalarda ishtirok etishdan avval tibbiy ko‘rikdan o‘tishi, sog‘lig‘i sport faoliyatiga mos ekanligi tasdiqlanishi lozim. Bu qoida sportchilarning uzoq muddatli sport faoliyatini saqlab qolish va inson salomatligini sport natijalaridan ustun qo‘yish tamoyiliga asoslanadi. Biz tadqiqotimizning maqsadidan kelib chiqqan holda O‘zbekiston sportchilarining xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta’minlashda huquqiy-axloqiy qoidalarni takomillashtirish yo‘nalishlarini quyidagicha ishlab chiqdik (1-jadvalga qarang).

1-jadval

O‘zbekiston sportchilarining xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta’minlashda huquqiy-axloqiy qoidalarni takomillashtirish yo‘nalishlari

T/r	Huquqiy-axloqiy qoidalarni takomillashtirish yo‘nalishlari	Amalga oshirishi mexanizmlari
1	Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish	- Sportchilarning xalqaro musobaqalarda ishtirokini kafolatlovchi aniq huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish; - Federatsiyalar faoliyatida shaffof tanlov va saralash tizimini joriy etish; - Sportchilarning huquqiy himoyasini kuchaytirish.
2	Axloqiy kodekslarni joriy etish va nazorat qilish	-Milliy sport federatsiyalarida “Axloqiy kodeks”ni ishlab chiqish; - Sportchilar va murabbiylar uchun majburiy axloqiy treninglar otkazish; - Axloqiy me’yorlar buzilishiga nisbatan milliy qonunchilikda aniq javobgarlik choralarini belgilash.
3	Antidoping va sog‘liqni muhofaza qilish	-Antidoping qoidalarini tushuntirishga qaratilgan ma’rifiy dasturlar joriy qilish; -Sportchilarning tibbiy-huquqiy savodxonligini oshirish; -Reabilitatsiya va psixologik yordam mexanizmlarini joriy etish.
4	Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish	-Xalqaro sport tashkilotlari bilan huquqiy tajriba almashish; - Sport huquqi va etikasi bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirish; -Sport arbitraj sudlari bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Tadqiqot davomida turli yosh guruhlariga tegishli sportchilar, trenerlar, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi olimlar va boshqa mutaxassislar, tibbiyot mutaxassislari hamda boshqa mutaxassislardan iborat bo‘lgan, musobaqalarga hamda ommaviy-jismoniy tarbiya tadbirlariga tayyorlanish va ularda O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida qatnashish maqsadida tashkil etiladigan turli tashkilotlarning jamoalari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari a’zolari faoliyati tahlil qilindi. Shuningdek, “boks”, “futbol”, “dzyudo” sport turlari bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoa a’zolarining xalqaro musobaqalarda ishtirok etish yuzasidan bilim samaradorlik ko‘rsatkichlari so‘rovnomalar orqali aniqlandi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Sport turlari bo‘yicha O‘zbeksiton milliy terma jamoa a’zolarining xalqaro musobaqalarda ishtirok etish yuzasidan bilim samaradirlik ko‘rsatkichlari

O‘zbekiston milliy terma jamoa a’zolari sport turi bo‘yicha	Tajriba sinov davrlari	Daraja ko‘rsatkichlari			Samaradorlik %	
		A’lo	Yaxshi	Qoniqarli		
Boks (n=20)	NG-Tajribadan oldin va keyin	2/3	6/8	12/9	8/40 10/50	10%
	TG-Tajribadan oldin va keyin	3/5	7/9	10/6	10/50 12/60	10%
Futbol (n=20)	NG-Tajribadan oldin va keyin	2/2	5/7	13/11	7/35 9/45	10%
	TG-Tajribadan oldin va keyin	2/4	7/10	11/6	9/45 14/70	25%
Dzyudo (n=20)	NG-Tajribadan oldin va keyin	3/4	5/8	12/8	8/40 12/60	20%
	TG-Tajribadan oldin va keyin	3/5	7/10	10/5	10/50 12/60	10%

Izoh: NG - nazorat guruhi, TG – tajriba guruhi.

2-jadval tahliliga ko‘ra, O‘zbekiston milliy terma jamoa a’zolarining boks, futbol va dzyudo sport turlari bo‘yicha xalqaro musobaqalarda ishtirok etish qoidalariga doir bilim samaradorligi tajribadan oldin va keyin nazorat (NG) hamda tajriba (TG) guruhlari kesimida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, barcha sport turlarida tajriba guruhi ishtirokchilarida bilim samaradorligi darajasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Xususan, boks sport turi bo‘yicha tajriba guruhida tajribadan oldin bilim samaradorligi 50 % ni tashkil etgan bo‘lsa, tajribadan keyin bu ko‘rsatkich 60 % ga yetdi, ya’ni 10 % lik ijobiy o‘sish kuzatildi. Nazorat guruhida esa o‘sish nisbatan past bo‘lib, 40 % dan 50 % ga oshib, 10 % ni tashkil etdi. Biroq tajriba guruhida “a’lo” va “yaxshi” darajadagi natijalar ulushining sezilarli ko‘payishi sifat jihatdan ustunlikni ko‘rsatadi.

Futbol sport turi bo‘yicha tajriba guruhi eng yuqori natijani namoyon etdi. Tajribadan oldin 45 % bo‘lgan bilim samaradorligi tajribadan keyin 70 % ga yetib, 25 % lik sezilarli o‘sish qayd etildi. Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkich 35 % dan 45 % ga oshib, 10 % ni tashkil etdi. Bu holat tajribaviy pedagogik ta’sir futbolchilar bilimiga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi.

Dzyudo sport turi bo‘yicha ham tajriba guruhida ijobiy dinamik o‘sish kuzatildi. Tajribadan oldin 50 % bo‘lgan bilim samaradorligi tajribadan keyin 60 % ga oshib, 10 % lik o‘sishni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa o‘sish 40 % dan 60 % ga yetgan bo‘lsa-da, bu asosan “qoniqarli” darajadan “yaxshi” darajaga o‘tish hisobiga yuz bergani aniqlanadi. Umuman olganda, tajriba guruhi ishtirokchilarida xalqaro musobaqalarda ishtirok etish qoidalariga oid bilimlarning miqdoriy va sifat jihatdan yuqori darajada oshgani, “a’lo” va “yaxshi” baholarning ulushi ko‘paygani aniqlandi. Bu esa ishlab chiqilgan yondashuv va pedagogik ta’sir vositalarining samarali ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Xulosa. Sportchilarni xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta’minlash jarayonida huquqiy va axloqiy qoidalar uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu qoidalarni tizimli ravishda takomillashtirish sportchilarning professional rivoji, xalqaro sport hamjamiyatida adolatli raqobat va davlatning sport sohasidagi ijobiy imijini ta’minlashga xizmat qiladi..

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 14-iyundagi “Sport terma jamoalari to‘g‘risidagi nizomni hamda sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida ”gi 173-son qarori.

2. Sport terma jamoalari to‘g‘risida uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, – T. 2025 y. – 15 b.

3. Захарова, Л. И. (2010). Всемирное антидопинговое агентство и другие субъекты международного спортивного права. Международное право – International Law, (4), 64–71.

4. Иглин, А. В. (2012). Спорт и право (международный аспект). Москва: Юрлит-информ.

Профессор
Ш.С. ТУРДИКУЛОВ[1]
[1]Узбекский государственный
университет физической культуры и спорта
город Чирчик, Узбекистан

10.65149/fansport.2025.v8i12.a019

ХАРАКТЕРИСТИКА И СТРУКТУРА ОСНОВНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ ФЕХТОВАЛЬЩИКОВ

Annotatsiya

В статье рассматриваются характеристика и структура основных элементов системы подготовки юных фехтовальщиков. Освещаются содержание и этапы тренировочного процесса, а также взаимосвязь его ключевых компонентов, обеспечивающих эффективность спортивной подготовки.

***Ключевые слова**: фехтование, юные спортсмены, система подготовки, тренировочный процесс, физическая подготовка.*

Abstract

Mazkur maqolada yosh qilichboz sportchilarni tayyorlash tizimining asosiy elementlari hamda ularning tuzilmasi tahlil qilinadi. Tayyorgarlik jarayonining mazmuni, bosqichlari va tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligi yoritilib, mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etish masalalariga e’tibor qaratiladi.

***Kalit so‘zlar**: qilichbozlik, yosh sportchilar, tayyorgarlik tizimi, mashg‘ulot jarayoni, jismoniy tayyorgarlik.*

This article examines the characteristics and structure of the main elements of the training system for young fencers. The content and stages of the training process, as well as the interrelation of its key components contributing to effective athletic development, are analyzed.

***Key words**: fencing, young athletes, training system, training process, physical preparation.*

Актуальность исследования: Внимание специалистов всех стран, все в большей степени сосредотачивается не только на разработке методики тренировки сильнейших спортсменов, но и на дальнейшем улучшении системы подготовки спортивных резервов обеспечивающих полноценное пополнение составов национальных сборных команд. Анализ состояния мирового фехтования показывает, что высокие организационные и методические уровни спортивной работы с детьми и подростками в значительной степени определяют успех той или иной страны на международной арене.

Цель: Обоснование закономерностей, присущих подготовке детей и подростков фехтовальщиков.




MKBANK


قطر
QATAR


Sharjah
267 Bakhromjon GAZIEV
SANTOS HIPPICA






PREZIDENT
OLIMPIADASI